

CHAPAQAY BOLALARDA TA'LIM -TARBIYA BERISHDA BOSH MIYA YARIM SHARLARI ASSIMIETRIYASINING O'ZIGA XOSLIGI

Boltayeva Sabina Ilhom qizi

Shahrisabz davlat pedagogika institutining pedagogika yo'nalishi

Annotatsiya: Inson miyasining tuzilishi va funksional xususiyatlari uning shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Chapaqay bolalar odatda o'ng qo'lli bolalarga qaraganda boshqacha kognitiv, psixologik va fiziologik xususiyatlarga ega bo'ladilar. Buning asosiy sababi – ularning bosh miyasidagi yarim sharlarning funksional assimetriyasi bilan bog'liqdir. Ushbu maqolada chapaqay bolalarning miyasining o'ziga xos ishlash mexanizmlari va ularni ta'lom-tarbiyaga jalg qilishda nimalarga e'tibor berish lozimligi yoritiladi.

Kalit so'zlar: Ta'lom, Tarbiya, Bolalar, psixologik, bosh miya, fiziologik, funksional, assimetriyasi, chapaqay, chap va o'ng yarimshar mexanizim

Abstract: The functioning and functions of the human brain play an important role as individuals. Left-handed children have different cognitive, therapeutic and physiological adaptations compared to right-handed children. The main reason for this is the functional asymmetry of the cerebral hemispheres. Three articles will discuss the specific mechanisms of the brain of left-handed children and what should be paid attention to when involving them in education.

Keywords: Education, Education, Children, psychological, brain, physiological, functional, asymmetry, left-handed, left and right hemisphere mechanism

Chapaqaylik — irsiyatga bog'liq holat; bunda ba'zi maqsadga muvofiq harakatlarni bajarishda ko'proq chap qo'l ishlatiladi. Odam bosh miyasining rivojlanish jarayonida funksiyalar chap va o'ng yarim sharlar o'rtaida taqsimlanadi. Chap yarim shar zimmasiga nutq, o'qish, yozish, hisoblash, analitik faoliyatning (logik, matematik) murakkab shakllari, o'ng yarim shar zimmasiga esa aniq obrazli faoliyat (tashqi olamdag'i narsalarning ko'rinishi, tovushi, rangi va boshqa bo'yicha aniqlash) tushadi. Oyoq-qo'llar harakatini bajarishda ikkala yarim shar qatnashadi; chap yarimshar ixtiyorida o'ng qo'l va oyoq, o'ng yarim shar ixtiyorida chap qo'l va oyoq bo'ladi. Ko'pchilik kishilarda chap yarim shar ustunlik qilganidan o'ng qo'l ko'proq ish bajaradi; o'ng qo'l yordamida ishlash, ovqat yeyish va boshqa odatdagi holat. Chapaqaylarda bosh miyaning o'ng yarim shari funksiyasi chap yarim sharnikidan ustun turadi

Chapaqay bolalarning psixologik va ta'lom xususiyatlari Chapaqay bolalar o'ziga xos fikrlash va muhitga moslashish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Ularning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Ijodkorlik va tasavvur kuchining rivojlanganligi – O‘ng yarim sharning faolligi tufayli chapaqay bolalar tasviriy san’at, musiqa, adabiyot kabi ijodiy yo‘nalishlarda muvaffaqiyatlari bo‘lishadi.

Axborotni vizual shaklda qabul qilish – Chapaqay bolalar matn va raqamlarni eslab qolishda tasvirlar, diagrammalar, ranglar bilan bog‘liq ta’lim usullariga ko‘proq moyil bo‘lishadi

Muvofiqlashuv qiyinchiliklari – Ko‘pgina jamiyatlarda yozuv, asbob-uskunalar va maktab uslubi o‘ng qo‘llilar uchun mo‘ljallangan bo‘lgani uchun chapaqay bolalar qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Emotsional sezgirlik – Chapaqay bolalar ko‘pincha hissiyotga boy bo‘lib, tashqi muhit ta’siriga sezgir bo‘lishadi.

Chapaqay bolalarga ta’lim va tarbiya jarayonida yondashuvlar

Chapaqay bolalarning rivojlanishiga mos keladigan ta’lim yondashuvlarini ishlab chiqish muhimdir. Quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

Moslashtirilgan yozuv va o‘qish usullari

Chapaqay bolalar uchun yozuv o‘rgatishda quyidagilarga e’tibor berish kerak:

Yozuv jarayonida daftarning burchagini o‘ng qo‘llilardan farqli joylashtirish.

Qalam yoki ruchkani ushslash texnikasini to‘g‘ri shakllantirish.

Ko‘p matnli vazifalar o‘rniga grafik va vizual materiallardan foydalanish.

Vizual va kinestetik o‘qitish usullari

Chapaqay bolalar vizual va kinestetik ta’limga yaxshi moslashadi. Shuning uchun:

Rasm, diagramma, sxemalar orqali tushuntirish usullaridan foydalanish.

Interaktiv o‘yinlar va tajribalar orqali o‘rgatish.

O‘yin usullari bilan bilimlarni mustahkamlash.

Chapaqay bolalarning ijtimoiy muhitda moslashuvi

Ba’zi jamiyatlarda chapaqaylik hanuzgacha noodatiy holat sifatida qaralishi mumkin. Shu sababli chapaqay bolalarni qo‘llab-quvvatlash va ularning o‘z qobiliyatlarini rivojlantirishiga yordam berish muhim:

O‘qituvchilar va ota-onalar chapaqaylik haqida to‘g‘ri bilimga ega bo‘lishlari kerak.

Chapaqay bolalarga mos keladigan mакtab anjomlari (qaychi, ruchka, partalar) taqdим etilishi lozim.

Ularga o‘zlarining o‘ziga xos jihatlari bilan faxrlanish muhitini yaratish kerak

Xulosa

Xulosa qilib aytganda Chapaqay bolalar boshqacha fikrlesh va idrok qilish qobiliyatiga ega bo‘lib, ularga mos ta’lim va tarbiya berish ularning potensialini to‘laqonli rivojlantirishga yordam beradi. O‘qituvchilar va ota-onalar chapaqay bolalarning individual xususiyatlarini inobatga olib, ularga mos keladigan pedagogik

usullarni qo‘llashlari lozim. Shu tariqa, chapaqay bolalar ham ijtimoiy va akademik jihatdan muvaffaqiyat qozonishlari mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.Galperin. S. N, “Bolalarning fizialogik xususiyatlari”. M. Prosveshenie.
- 2.To’raqulov Yo. X. “Hozirgi zamon biologiyasi va irsiyat masalalari”. T, Fan 1969 yil.
- 3.Y.Azimov, R.Qo’ldoshev.“Husnixatga o’rgatishning amaliy asoslari”. T.: Turon zamin ziyo, 2017yil.
4. Y. Azimov, A. Hamroyev, “Husnixat va uni o’qitish usullari”, Buxoro, 2003yil.
- 5.Isanova, V. (2020). interrelation between language and culture -the main basis of lingoculturology.Архив Научных Публикаций JSPI,1(83). извлечено от